

**“Yangi O‘zbekistonda – Yoshlarni vatanpravarlik va mardlik
ruhida tarbiyalash” bugungi kunning dolzarb masalasidir**

Sabirov G‘ayrat G‘anijonovich

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi, vatanparvarlik ruhida ta’lim va tarbiya berishda professor-o‘qituvchilarning katta ahamiyatga ega ekanligi, yurtimizda harbiy ta’limga va ilm fanga oid keng ko‘lamli islohotlar olib borilayotganligi bilan tanishimiz mumkin bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, vatanparvar, ta’lim va tarbiya, komil inson, islohotlar, ilm-fan, salohiyat, yutuqlar, ustuvor yo‘nalish.

Tarixdan ma'lumki, har qanday davlat taraqqiyot yo‘li, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Binobarin, yurtimizda keljak avlod taqdiri bilan qiziqmaydigan va qayg‘urmaydigan o‘zbek oilasi bo‘lmasa kerak. Xalqimiz farzandi kelajagi uchun tinimsiz mehnat qiladi, ertasi farovon bo‘lishi uchun qayg‘uradi. Maqsadi bitta: uni sog‘lom, dono, mard va komil inson bo‘lib voyaga yetkazishdir.

Darhaqiqat, so‘z ertangi kunning yoshlari xususida ketar ekan, ahamityasizdek ko‘rinadigan har qanday masalaga jiddiy e’tibor qaratish, mavjud muammolarni nazardan chetda qoldirmaslik va yosh avlodning ma’naviy-ruhiy dunyosini turli yot va buzg‘unchi g‘oyalardan asrab-avaylash biz o‘qituvchi va ustozlarning dolzarb vazifasiga aylangan.

O‘z o‘rnida har bir o‘sib kelayotgan yosh avlod “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etishda o‘zining cheksiz sadoqatligi, jonkuyarligi, millatiga, xalqiga xizmat qiladigan, yetuk komil inson bo‘lib yetishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Shu o‘rinda, Qurolli Kuchlar Akademiyasida “Milliy iftixor, burchga sadoqat va jasorat” tamoyili asosida harbiy kadrlarni tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

Qurolli Kuchlar Akademiyasida yoshlarning ta’lim-tarbiya masalasida professor-o‘qituvchilar milliy mafkuraga yondashgan xolda ya’ni xalq manfaati, yurt tinchligi va vatan ravnaqi kabi asosiy mezonlarga tayanib, xizmat faoliyatini olib bormoqdalar.

Xozirgi kunda Akademiyada kursantlarning har jabhada muvoffaqiyatiga erishib kelishida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M. Mirziyoyevning yaratib bergen qulay sharoitlari bilan birgalikda Akademiya rahbariyatining professor-o‘qituvchilariga qilayotgan g‘amho‘rliklari bilan bir qatorda bu kabi ustuvor vazifalarni bajarish uchun yaratilgan imkoniyatlarning keng ko‘lamligidir.

Shuni ta’kidlash joizki, so‘ngi yillarda Qurolli Kuchlarimizda jangovar salohiyatni oshirish, harbiy qurilish sohasini tubdan modernizatsiya qilish va harbiy sanoatni yuritilishi jadal sur’atlar bilan amalga oshirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida milliy armiyamizda sifatli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, uning saflarida xizmat qilish tom ma’noda shon-sharafga aylanib bormoqda. Bu borada, ayniqsa, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, albatta, biz professor-o‘qituvchilar tarkibi Akademiyada tahsil oluvchilarni ma’naviy yetuk, jismonan sog‘lom, vatanparvar va fidoyi jangchi etib tarbiyalash ishlarni yanada izchil davom ettirishimiz lozim bo‘ladi va kelgusida Qurolli Kuchlar safiga yanada yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, nostandard vaziyatlarda tez va to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan mahoratli professional kadrlarni yetishib chiqarish asosiy vazifalarimizdan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni O‘RQ-637-son Qonuni.
2. Ibroximov I. “Vatan tuyg‘usi” Xalq ta’limi, T.: 1999, 26-bet